ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

FIZIKA TA'LIMIDA FORMATIV VA SUMMATIV BAHOLASH USULLARINING AHAMIYATI VA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Shukurova Zarifa Xaitmuratovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 326-IDUM maktabining fizika va informatika fanlari o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqola fizika ta'limida formativ (shakllantiruvchi) va summativ (yakunlovchi) baholash usullarining ahamiyatini va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qiladi. Shuningdek, ushbu ikkala baholash usulining o'ziga xos xususiyatlari, ularning fizika darslarida qo'llanilishi, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan yondashuvlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Formativ va summativ baholashning birgalikda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini qanday oshirishi mumkinligi ham ko'rib chiqiladi. Maqola o'qituvchilarga baholash usullarini aniq va samarali qo'llash, o'quvchilarni yanada faolroq va o'ziga ishonchli ravishda o'qishga jalb qilish uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar. *formativ baholash, summativ baholash, fizika o'qitish, ta'lim samaradorligi, baholash usullari.*

Аннотация: *Эта статья анализирует важность методов формативной (формирующей) и суммативной (итоговой) оценки в преподавании физики и их влияние на эффективность обучения. Также рассматриваются особенности этих двух методов оценки, их применение на уроках физики, подходы учащихся к образовательному процессу и их эффективность. Анализируется, как совместное использование формативной и суммативной оценки может повысить эффективность обучения. Статья предоставляет рекомендации преподавателям по точному и эффективному применению методов оценки, а также по более активному и уверенно вовлечению учащихся в учебный процесс.*

Ключевые слова: *Формативная оценка, суммативная оценка,преподавание физики, эффективность обучения, методы оценки.*

Annotation: *This article analyzes the importance of formative (shaping) and summative (final) assessment methods in physics education and their impact on the effectiveness of learning. It also examines the specific characteristics of these two assessment methods, their application in physics lessons, students' approaches to the educational process, and their effectiveness. The article explores how the combined use of formative and summative assessments can enhance learning effectiveness. Additionally, the article provides recommendations for teachers on the accurate and effective use of assessment methods, as well as strategies to engage students more actively and confidently in the learning process.*

Keywords: *formative assessment, summative assessment, physics teaching, learning effectiveness, assessment methods.*

Ta'lim tizimi har doim yangilanish va rivojlanish yo'lida turadi. Bu jarayonda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash metodlari o'qitishning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning samarali bo'lishi, nafaqat o'quvchilarni bilimlar bilan ta'minlash, balki ularni rivojlantirish, ularning qiziqishlarini uyg'otish va o'qish jarayonida motivatsiyasini oshirishga ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, baholash usullari ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Baholash jarayonida ikki asosiy yondashuv mavjud: formativ (shakllantiruvchi) va summativ (yakunlovchi) baholash. Formativ baholash o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi faoliyatini doimiy ravishda kuzatish va ularni rivojlantirishga qaratilgan. Bu usul yordamida o‘qituvchi talabalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, o‘quv jarayonini optimallashtiradi. Summativ baholash esa, o‘quvchilarni yakuniy baholash va ular o‘rgangan bilimlarning umumiy natijalarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu baholash usullari o‘quvchilarning bilim darajasini va ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini o‘lchashda o‘zaro to‘ldiruvchi rol o‘ynaydi.

Formativ va summativ baholash atamalari ilk bor amerikalik pedagog va psixolog Benjamin Bloomtomonidan 1960-yillarda ilgari surilgan. Bu tushunchalar Michael Scriventomonidan 1967-yilda batafsil ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Scriven baholashning ikki asosiy turini ajratib ko‘rsatdi[1]:

1. Formativ baholash – o‘quv jarayonining davomida ta’lim berish samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilimlarini real vaqt rejimida shakllantirish uchun ishlatiladi;
2. Summativ baholash – o‘quv jarayonining oxirida o‘quv natijalarini umumlashtirish va ularni belgilangan standartlarga mos kelishini tekshirish uchun qo‘llaniladi.

Bugungi kunda, ayniqsa, fanlar ta'limi, jumladan, fizika darslarida, bu ikki baholash usulining birgalikda qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Formativ va summativ baholashning muvozanatli integratsiyasi o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni egallashda, balki tanqidiy fikrlash va mas'uliyatni oshirishda ham yordam beradi. Shu sababli, ushbu maqolada fizika o‘qitish jarayonida formativ va summativ baholash usullarining ahamiyati va ularning ta'lim samaradorligiga bo‘lgan ta'siri tahlil qilinadi.

Formativ baholashning ahamiyati

Formativ baholash – o‘quvchilarning o‘qish jarayonida o‘z bilimlarini rivojlantirishini kuzatishga qaratilgan usuldir. Bu baholash jarayoni davomida o‘quvchilarni har bir bosqichda baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shu orqali o‘quv jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Maqsadlari:

✓ O‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish: Formativ baholash o‘quvchining bilim darajasini va o‘qishdagi muvaffaqiyatini doimiy ravishda tahlil qilishga imkon beradi.

✓ O‘qituvchiga maslahatlar berish: O‘qituvchi talabaning zaif tomonlarini aniqlab, kerakli yordamni ko‘rsatishi mumkin.

✓ O‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatish: O‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda baholashni o‘rganadilar.

Metodlari:

➢ Testlar va qisqa savollar: O‘quvchilarning bilim darajasini tezda aniqlash uchun.
➢ Guruhlar bilan ishlash va muhokamalar: O’quvchilar o’rtasida o’zaro bilim fikrlar almashish.
➢ Laboratoriya ishlar va amaliy mashg‘ulotlar: Amaliy faoliyat orqali bilimlarni mustahkamlash.

Formativ baholash, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va yaxshilanish uchun vaqt berish imkonini yaratadi. Bu usul o‘qish jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga va o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.

Summativ baholashning ahamiyati

Summativ baholash – o‘quvchilarning o‘qish jarayonining yakunida ularning bilim va ko‘nikmalarini umumiy ravishda baholashga mo‘ljallangan usuldir. Bu baholash turi o‘quvchining o‘rgangan materialini va o‘zlashtirish darajasini o‘lchashda asosiy rol o‘ynaydi.

Ta'lim jarayonidagi o‘rni:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

❖ Yakuniy baholash: Summativ baholash, o‘quvchilarning o‘quv yilidagi yoki kursdagi umumiy natijalarini tahlil qiladi. Bu usul o‘quvchi yoki o‘qituvchi tomonidan yakuniy baho belgilanishiga asos bo‘ladi.

❖ Ta'limning samaradorligini aniqlash: Summativ baholash yordamida o‘qituvchilar ta'lim tizimining samaradorligini baholashlari mumkin. Shuningdek, ta'lim dasturlarining qanchalik samarali ekanligi haqida ma'lumot beradi.

❖ Tashqi baholash tizimlari bilan bog‘lanish: Summativ baholash o‘quvchining o‘rganishdagi umumiy natijalarini tekshiruvchi tashqi baholash tizimlariga mos keladi, masalan, imtihonlar yoki sertifikatlash.

O‘quvchilarni baholashdagi roli:

◆ Natijalarni aniq belgilash: Summativ baholash o‘quvchilarni yakuniy natijalar asosida baholaydi va ularning umumiy bilim darajasini aniqlaydi.

◆ Motivatsiyani oshirish: Bu baholash turi o‘quvchilarga o‘z natijalarini ko‘rishga imkon beradi va kelajakdagi maqsadlar uchun motivatsiyani kuchaytiradi.

◆ Hujjat sifatida: Summativ baholash natijalari o‘quvchilarga ta'lim yo‘nalishlarini va kurslarini tanlashda asos bo‘ladi, shuningdek, kelajakda akademik yoki professional rivojlanish uchun kerakli hujjatni tashkil qiladi.

Summativ baholash ta'lim jarayonining yakuniy qismini tashkil etib, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini umumlashtiradi va ularning umumiy yutuqlarini tahlil qiladi. Bu usul ta'limning samaradorligini aniqlash va o‘quvchilarga o‘z yutuqlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Formativ va summativ baholashning ta'lim samaradorligiga ta'siri

Formativ va summativ baholashning birgalikda qo‘llanilishi ta'lim jarayonini yanada samarali va maqsadga muvofiq tashkil etishga yordam beradi. Har ikki baholash usuli o‘zaro to‘ldiruvchi va ularning integratsiyasi o‘quvchilarning bilim darajasini aniqroq baholash, shuningdek, o‘qituvchilarga darslarni optimallashtirish imkonini yaratadi. Quyida ushbu ikki baholash usulining o‘quv jarayonida qanday ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi haqida ma'lumot berib o‘tamiz.

1. O‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish:

Formativ baholashning doimiy kuzatuvi o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. O‘qituvchi bu ma'lumotlardan foydalanib, talabaga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishi yoki darsni takomillashtirishi mumkin. Summativ baholash esa, yakuniy natijalarni baholash orqali o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini ko‘rsatadi. Shunday qilib, formativ va summativ baholashning birgalikda qo‘llanilishi talabaning individual o‘sishini yanada samarali kuzatishga imkon yaratadi.

2. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish:

Formativ baholash o‘quvchilarga o‘zlarining bilimlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratadi, chunki ular o‘z natijalarini doimiy ravishda ko‘rib turishadi. Summativ baholash esa yakuniy natijalarni belgilaydi, bu esa o‘quvchining motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchi, natijada, nafaqat o‘qish davomida o‘z bilimlarini rivojlantiradi, balki yakuniy natijalarga erishish uchun yanada ko‘proq harakat qiladi.

3. O‘qituvchining ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyati:

Formativ baholash o‘qituvchiga darsning qanday o‘tishini, talabalar nimalarni yaxshi o‘rganayotganini va qaysi sohalarda qiynalayotganini tushunishga yordam beradi. Bu ma'lumotlar asosida o‘qituvchi o‘z yondashuvini va metodikasini o‘zgartirishi mumkin. Summativ baholash esa yakuniy natijalarni tahlil qilishga yordam beradi, bu esa o‘qituvchiga o‘z o‘quv dasturini yangilash yoki yaxshilashda yordam beradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

4. Ta'limning shaffofligi va aniqroq baholash:

Formativ va summativ baholashning birgalikda qo‘llanilishi o‘quv jarayonini shaffof qiladi. Formativ baholash o‘quvchilarga o‘z bilim darajasini va ularning rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Summativ baholash esa yakuniy bahoni va natijalarni aniq belgilaydi. Bu ikki baholash usulining birlashishi o‘quvchilar uchun o‘qish jarayonini yanada tushunarli va o‘zlashtirilgan qiladi.

5. O‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatish:

Formativ baholash o‘quvchilarga o‘z bilimlarini va ishlash jarayonini baholash imkoniyatini beradi. Bu jarayon o‘quvchining o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘zgarishlarga qarshi ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Summativ baholash esa yakuniy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchilarga o‘z maqsadlariga erishishda motivatsiya beradi.

Formativ va summativ baholashning birgalikda qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurroq o‘lchashga, o‘qituvchilarga darsni samarali tashkil etishga, shuningdek, o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu ikki baholash usuli birgalikda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini to‘liqroq va yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davidova D. Formativ va summativ baholash tizimi haqida fikrlar. [Internet]. T.ME. 2025

2. Ahmadova, M. (2025). Formativ va summativ baholashning samaradorligi. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot* , *4* (5), 94-96. https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/44928